

This is not registered version of TotalDocConverter.

Mehi Ahsuna Qashqin kongrammu rostim, deb aytolmayman. Bunga Hakim Nazir aybdor.

Marg'ilon bozorining beshik rastasi shinam choyxona bo'lар edi. Domlam Obidjon aka bilan bitta non, bir hovuch mayiz olib, endi choy chaqirgan edik, domla:

- Ana, u yoqqa qara...**B**"deb qoldilar shivirlab,- Abdulla Qodiriy o'ltiribdi.

Men qaradim ikkita soddagina, do'ppili kishi shaxmat surishyapti. Shu o'yinga juda berilgan paytim, gazetada chiqqan chigil masalalarni yechib, grosmeysterlarning o'yinlarini tahlil qillardim. Haligilarning taxtasiga qarasam - juda qiziq vaziyat!... Alyoxin bi-lan Kapablankaning mashhur partiyasi-ku bu!

- Narigisi yutadi - dedim.

- O'shanisi Qodiriy-da,**B**"dedi Obidjon aka.

Mening fikri-zikrim taxtadagi vaziyatda edi,- shu vaziyatda buyuk Kapablanka taxtdan yiqilgan.

Qodiriyni ko'rdimu ko'rdim, deb aytolmayman.

Buning Hakim Nazirga nima dahli bor, dersiz? Haknm aka "Lenin uchquni"da ishlardilar. Shu gazetada chiqqan xabarlarim uchun qalam haqi o'rniqa (pul bolani buzadi, degan bo'lsalar kerak) u kishi menga shaxmat yuborganlar. Donalari jajji, yiltiroq, taxtasi sirlangan. Bunaqasini ko'rmagan edim, Qo'ltig'imda olib yurib, shu o'yinga ruju qo'ydim. Bolalik zkan-da...

Bolalik ham qoldi. Shaxmat ham qoldi. Qodiriy esa umrim, kasbim, taqdirim...

Bunday bo'lishini kim bilib o'tiribdi deysiz!

1992